



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 23-dekabr

736-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 16-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birliklari davlat reyestrini yuritish va ma'muriy-hududiy tuzilish masalalari bo'yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etish tartiblarini belgilash to'g'risida" 2024-yil 10-dekabrda 832-son qarori ijrosi haqida"gi 606-6-0-Q/24-son qarori haqida

"O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 19-fevralda PQ-75-son qarori ijrosini hamda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birliklari davlat reyestrini yuritish va ma'muriy-hududiy tuzilish masalalari bo'yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etish tartiblarini belgilash to'g'risida" 2024-yil 10-dekabrda 832-son hamda shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 16-dekabrda 606-6-0-Q/24-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

- Namangan viloyati hokimining 2024-yil 16-dekabrda 606-6-0-Q/24-son qarori rahbarlik va ijrosini ta'minlash uchun qabul qilinsin.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-dekabrda 832-son qarori bilan:
Quyidagilar:
O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birliklari davlat reyestrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizam 1-ilovaga muvofiq;
O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq;
O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalari bo'yicha hududiy komissiyasining namunaviy tarkibi 3-ilovaga muvofiq;
O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalari bo'yicha respublika komissiyasi to'g'risidagi nizam 4-ilovaga muvofiq;
O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalari bo'yicha hududiy komissiyalar to'g'risidagi namunaviy nizam 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;
belgilanishicha:
O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi (keyingi o'rinlarda Kadastr agentligi) O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birliklari davlat reyestrini (keyingi o'rinlarda Reyestr) shakllantirish va yuritish uchun mas'ul organ hisoblanishi;
Kadastr agentligi Reyestrni ishlab chiqish va axborot tizimini qo'llab-quvvatlashda buyurtmachi hisoblanishi;
- O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlarni, shu jumladan, xaritalar va chegaralar chizig'i tavsifini tayyorlash, ma'muriy-hududiy birliklarning navbatchi xaritalarini va ma'muriy-hududiy birliklarning davlat reyestrini ishlab chiqish va yuritish ishlari O'zbekiston

Respublikasining Davlat budjeti parametrlarida Kadastr agentligi uchun budjetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida moliyalashtirilishi;

shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq:

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari davlat xizmatlarini ko‘rsatishda hamda idoralararo elektron o‘zaro hamkorlik qilishda Reyestrda foydalanishi shart;

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari Reyestrda kiritiladigan axborotning o‘z vaqtida taqdim etilishi va ishonchligi uchun javobgar hisoblanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov va tuman hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari H.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov